




| <b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>                         |                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGANLIGIGA 35 YIL TO'LDI</b> |                                                                                                                  |     |
| <b>Shirnova M.Sh.</b>                                                | Ona tili – madaniyat ko'zgusi                                                                                    | 3   |
| <b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>                  |                                                                                                                  |     |
| <b>Гулямова Ш.К.</b>                                                 | Полифункционал сўзлар ва уларнинг семантик анализатори хусусида                                                  | 5   |
| <b>Мамасолиев И.У.</b>                                               | Средства массовой информации как распространитель, стандартизатор и новатор языка                                | 16  |
| <b>Yusupova M.B.</b>                                                 | Digital innovations in lexicography: enhancing the representation of linguistic and cultural units               | 21  |
| <b>Seyidov M.M.</b>                                                  | The siyahul-furs dictionary: a transcultural linguistic legacy                                                   | 25  |
| <b>Kodirova M.T.</b>                                                 | Ingliz tili biznes diskursida ironiya                                                                            | 32  |
| <b>Khudoyberdieva O.M.</b>                                           | The role of loanwords in english and uzbek dance terminology                                                     | 38  |
| <b>Fayzieva M.Ch.</b>                                                | Corpus linguistics as a data-driven approach to vocabulary instruction in inclusive environments                 | 45  |
| <b>Berdiyeva R.K.</b>                                                | Frazeologizm pragmatik ma'nolarining matn ta'sirida o'zgarishi va ularning pragmatik-emotsionallik xususiyatlari | 49  |
| <b>Bekbergenova G.U.</b>                                             | Lingvistik terminlarning polifunksionallik xususiyatlari                                                         | 53  |
| <b>Bahriddinova Y.B.</b>                                             | Elektron lug'atlarning ishlab chiqishi va ularning botanika terminologiya muhitidagi ahamiyati                   | 57  |
| <b>Yuldasheva D.B.</b>                                               | The problem of word processing in the uzbek language                                                             | 62  |
| <b>Satimova D.N.</b>                                                 | Jahon sotsiolektida substandard qatlam va uning tarkibi                                                          | 66  |
| <b>Nurova Y.U.</b>                                                   | O'zbek xalq paremlarida kasb-kor, oziq-ovqat nomlarining etnolingvistik xususiyatlari                            | 71  |
| <b>Mengliyeva M.B.</b>                                               | Aspektual ma'no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli lug'atlaridagi talqinini takomillashtirish yo'llari     | 75  |
| <b>Kayumova N.X.</b>                                                 | “Yangiliklar” media janr va diskurs sifatida: genezis, ta'rif, tasnif, qiyos                                     | 80  |
| <b>Juraqobilova H.X.</b>                                             | Oriyentatsion metaforalarning lingvokognitiv xususiyatlari                                                       | 85  |
| <b>Jumayev T.</b>                                                    | Shakl yasovchi morfemalarning so'z yasash imkoniyatlari                                                          | 90  |
| <b>Hamroyeva N.N.</b>                                                | The pragmalinguistic nature of politeness in conflictuous communicative action                                   | 94  |
| <b>Bobozaripova M.E.</b>                                             | Jahon va o'zbek tilshunosligidagi tezaurus lug'atlar haqida                                                      | 98  |
| <b>Ahmadova U.Sh.</b>                                                | Perifraza – lingvomadaniy hodisa sifatida                                                                        | 103 |
| <b>Achilova R.A.</b>                                                 | Mutual differences of the linguistic concepts of allusion and reminiscence                                       | 108 |
| <b>Хайруллоева Г.Ф.</b>                                              | Модалликини ифодалашнинг семантик асослари                                                                       | 112 |
| <b>Сабирова С.О.</b>                                                 | Современная роль и значение латынского языка в современном мире                                                  | 117 |

## PERIFRAZA – LINGVOMADANIY HODISA SIFATIDA

*Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,*

*Buxoro davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika*

*kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

*[u.s.ahmadova@buxdu.uz](mailto:u.s.ahmadova@buxdu.uz)*

*[uaxmadova477@gmail.com](mailto:uaxmadova477@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>*

**Annotatsiya.** Maqolada turli sohalarga oid perifrastik birliklar keltirilib, ularning lingvomadaniy jihatdan tahlili amalga oshirilgan. Til va madaniyat, perifraza va lingvokulturologiyaning aloqadorligi, insonni va uning tilini madaniyat tarkibida o‘rganilishiga oid qarashlar keltirilgan bo‘lib, misollar asosida tahlilga tortilgan. Tilning perifrazalogik boyligida ham xalqning madaniyati, mentaliteti, turmush tarziga oid ma’lumotlar jamlanganligi xususida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, perifraza, hunarmandchilik, tibbiyot, tabobat, xalq, milliy, madaniy, qadriyat, tafakkur, an‘ana, lison, nutq, mazmun, mohiyat, jamiyat, ijtimoiy, muloqot, muomala, munosabat.

## ПЕРИФРАЗ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ФЕНОМЕН

**Аннотация.** В статье представлены перифрастические единицы, относящиеся к различным областям, и проведен их лингвокультурологический анализ. Представлены и проанализированы на основе примеров взгляды на взаимосвязь языка и культуры, перифраз и лингвокультурологии, исследования человека и его языка в структуре культуры. Перифразологическое богатство языка содержит также информацию о культуре, менталитете и образе жизни народа.

**Ключевые слова:** язык, лингвокультурология, лингвистика, культурология, перифраз, ремесло, медицина, медицина, народная, национальная, культурная, ценность, мысль, традиция, язык, речь, содержание, сущность, общество, социальное, общение, обращение, отношение.

## PERIPHRASE AS A LINGUOCULTURAL PHENOMENON

**Abstract.** In the article, periphrastic units related to various fields are presented, and their linguistic and cultural analysis is carried out. Views on the relationship between language and culture, periphrasis and linguo-culturology, the study of a person and his language in the structure of culture are presented and analyzed on the basis of examples. The periphrasological wealth of the language also contains information about the culture, mentality, and lifestyle of the people.

**Keywords:** language, linguoculturology, linguistics, cultural studies, periphrasis, craft, medicine, folk, national, cultural, value, thought, tradition, language, speech, content, essence, society, social, communication, treatment, attitude.

**Kirish.** Xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz, mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyat davlatimiz tili o‘zbek tilidir. Bugungi rivojlanayotgan yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’tirof etilgan pallada nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Nutq va muomala madaniyati millat ma’naviy kamoloti hamda jamiyat madaniy taraqqiyotining muhim asosidir. “...til, millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. ... millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir” [11, 3]. Ma’lumki, har bir xalqning madaniyati, turmush tarzi ifodasi uning tilida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda nutq madaniyati masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratib kelinmoqda. Inson bolaligidan boshlab, o‘z millatiga xos bo‘lgan tilda nutq so‘zlay boshlaydi hamda shu orqali madaniyatni o‘rganadi. “Nutq madaniyati – inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, jamiyat madaniy taraqqiyoti va millat ma’naviy kamolotining muhim belgisi hisoblanadi” [12, 5].

**Tadqiqot metodi.** Keyingi yillarda lingvistika sohasining o‘rganish obyekti kengayib, fanlararo integratsiyalashuv jarayoni kuchayib, fanga “madaniyatlararo muloqot”, “lingvomadaniyatshunoslik”, “pragmapsixolingvistika”, “sotsiolingvistika”, “lingvoma’naviyatshunoslik”, “lingvopersonologiya”, “lingvkonseptshunoslik” singari yo‘nalishlar kirib keldi. Muloqot sistemasida qo‘llanadigan til birliklari

mohiyatini butun murakkabligida – muloqot muhiti, muloqot natijasi, sotsial-madaniy va lisoniy omillar yaxlitligida lingvomadaniy tahlil qilish va tadqiqotlarni “sof til” tadqiqidan integral tahlil darajasiga olib chiqish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Muhokama.** Perifraza til va nutqni boyituvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Lingvomadaniy birlik sifatida tahlil va tadqiq qilish tilshunoslik ilmi uchun juda zarur. Qaysi soha bo‘lmasin barchasi tilda tadqiq qilinar ekan, kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, perifraza jamiyatning barcha a‘zosi tilini boyituvchi, nutqini ta’sirli qiluvchi birikdir. Perifraza nutqning rang-barangligini, badiiyligini ta’minlovchi uslubiy vosita bo‘lib, u tilning nomlash ehtiyoji mahsuli emas, balki ifoda ehtiyoji mahsulidir. Chunki u o‘z nomiga ega bo‘lgan predmet-hodisani qayta nomlaydi. Mazkur xususiyatga bog‘liq holda perifraza nutqda ham nominativ, ham estetik, ham badiiy vazifa bajaradi. Perifrastik birliklarda nutqni yanada chiroyli tasvirlash orqali tinglovchi diqqatini tortish, nutqni eshitimli bo‘lishini ta’minlash maqsad qilinadi. Ushbu birlik jamiyatning barcha sohalarida qo‘llanayotganligini bevosita kuzatish mumkin. Buni quyida tahlilga tortiladigan misollar asosida kuzatamiz. Jumladan:

Shoxli beka, mohitilla, tilla oy – bibishox (peshona, chakka bezagi)

*Bibishox (umumlashgan atama, aynan: “shoxli beka”). Uchlari baland ko‘tarilgan, ular orasidan ma‘lum uslubga solingan gul g‘unchasi o‘sib chiqayotgan yarim oy shaklidagi, yakka (peshona) yoxud qo‘shaloq (chakka) peshona-chakka bezagi. ...shuningdek, mohitilla (moh – “Oy”; aynan: “tilla Oy”) sifatida ham ma‘lum [7, 29].*

Hayot daraxti shaklidagi toj – boshtuzi, osmatuzi

Xorazm ayollarining boshga taqiladigan ziynat buyumi, “shoxlar” yoki “qanotlar” bilan o‘ralgan hayot daraxti shaklidagi toj. Ushbu shohona bosh taqinchog‘ining dastlabki namunalari saljuqiylar haykaltaroshligidan ma‘lum, XI – XII asrlar [7, 35].

Bir bog‘ gul, hayot daraxti hosilasi – guldasta

*Forscha, bir bog‘ gul. 1) tashqi devorlar tutashgan burchakda qad rostlagan, odatda dumaloq shaklda ishlangan minora; 2) minoraning yuqori qismi; 3) gullayotgan novda va guldastalar naqshi, hayot daraxti hosilasi; Buxoro, Nurota, Shahrisabz kashtado‘zligida, devor bezaklarida, kitob miniatyuralarida – unumdorlik, jannat bog‘ining klassik ramzi [7, 46].*

Badiya – tik laganlar

*Xorazm kulolchiligi me‘moriy qoplamalardan o‘zlashtirib olingan naqshlari bilan mashhur. Faqat ushbu markazda badiya, ya’ni tik laganlar yasalgan (So‘zlashuvdan).*

Olovbardosh – ilvata

Temir tuproq – jo‘sha

*Kulolchilik mahsulotlarini yasashda kulollar mahalliy xomashyo va ashyolardan foydalanganlar. Xususan, gil tuproq-gilvata, ya’ni “olovbardosh” tuproq turidan foydalanishgan (So‘zlashuvdan).*

Qasam guvohi – yog‘log‘i

*Azaldan kulolchilik uchun tayyorlangan loy nondek mo‘tabar sanalgan, uning ustiga o‘tirish mumkin bo‘lmagan. Sopol buyumlar, masalan, yog‘log‘i (qasam guvohi) bilan hatto qasam ichish odati ham bo‘lgan (So‘zlashuvdan).*

Keltirilgan misollar hunarmandchilik sohasiga mansub bo‘lib, hunarmandchilik bilan bog‘liq tushunchalarni badiiy bo‘yoqdorlikda tasvirlash va yetkazish uchun xizmat qiladi. Hunarmandchilik bilan bog‘liq mahsulotlarda jamiyat a‘zolariga xos bo‘lgan milliy-madaniy xususiyatlarning aks etishi hunarmand nutqi samaradorligiga xizmat qiladi. Ma‘lum bir diskursdagi milliy-madaniy xususiyatlarni tadqiq etish lingvokulturologiya, shuningdek, sotsiolingvistikaning tadqiq markazida turadi. Ammo jamiyat vakillarining yashash tarzi, ijtimoiy xususiyatlari, qolaversa, ular orasidagi muloqot va ta’sir, ma‘lum bir xatti-harakatga undash kommunikantlarning milliy-madaniy xususiyatlari bilan qorishiq holda shakllanadi. Bunda Shaxriyor Safarovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli hisoblanadi. “Pragmalingvistika va sotsiolingvistika yo‘nalishlarining uchrashuv nuqtalari shunchalik ko‘p, shuningdek, bu sohalar shu darajada yaqinki, hatto ayrimlar pragmatikani hozirgacha sotsiolingvistikaning alohida bir qismi sifatida ta’riflab kelmoqdalar. Shuning bilan birgalikda, pragmalingvistikaning tadqiq huquqiga ega ekanligi, bu tadqiqotlarda alohida maqsad va vazifalar ko‘zlanishini hech kim inkor etmaydi. Mustaqillik huquqiga erishgan pragmatika sotsiolingvistika bilan qarindoshchilik rishtalarini uzgani yo‘q va bu rishtalar yangi shakllanayotgan yo‘nalishlar – sotsiopragmatika va etnosotsiopragmatikani oziqlantirib turishibdi” [13, 191]. “Madaniyat tildan foydalanishga qanday ta’sir qilishini tushunish nuqtayi nazaridan sotsiopragmatik sohaga e’tibor berish juda muhim, chunki u madaniy bilimlar, qarashlar va qadriyatlar ishtirokchilarning kontekstual baholariga, xususan, mavzuga ta’sir qilishini tushunishga imkon beradi” [6]. Hunarmandlar nutqida va hunarmandchilik mahsulotlarida xalqimizning milliy madaniyati, mentaliteti, azaldan saqlanib kelayotgan qadriyatlari, diniy qarashlari hisobga olinib, o‘z ifodasini topadi.

Perifrazada qayta nomlash va qayta nomlaganda ham obrazlilik, badiiy bo'yoqdorlikka asoslanish muhim sanaladi. Unda til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliylik, madaniylik belgilari singadi. Chakka bezagiga nisbatan mohitilla, isirg'a, halqaga nisbatan quloqlar mohi, nikoh uzugiga nisbatan baxt ramzi, baxt timsoli kabi perifrazalar qo'llanadi. Perifraza murakkab tabiatli hodisa sanaladi. U til, ilm-fan, hayot, madaniyat, butun olam tarkibiga singgan. Perifraza barcha tillar uchun xos. Shuningdek, so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarning asosiy komponentiga aylanib ulgurgan birlik sanaladi. Perifrazalarning yuzaga kelishi fikr ifodalayotgan, munosabat bildirayotgan til egasining tushunchalar tizimi bilan o'zaro bog'liqdir. Kishi tasavvur va qarashlarini, baholash mezonlarini tasviriy ifodada namoyon qiladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi misollarga murojaat qilamiz. Jumladan:

Asab davosi – qovun.

*Qovunlar chanqoqni bosib, asab tizimini tinchlantiradi. Uning shifobaxsh xususiyatlari tarkibida B9 va C vitaminlari, temir moddasi va kaliy tuziga boyligi bilan bog'liq. Shu sababdan ham mutaxassislar bemorlarda kamqonlik, yurak, qon-tomir kasalliklarida, aterosklerozda, buyrak va jigar kasalliklarini davolashda asab davosi hisoblangan qovunni iste'mol qilishni buyurishadi [5].*

Asab tolalarini tinchlantiruvchi mentol – yalpiz.

*Yalpiz tarkibida asab tolalarini tinchlantiruvchi mentol mavjud bo'lib, uni damlab yoki chaynab iste'mol qilish yoki shunchaki chaynab maydalab tilning ostiga qo'yish kifoya (So'zlashuvdan).*

Ayollar salomatligida beminnat yordamchi – bulg'or qalampiri.

*Bulg'or qalampiri ayollar salomatligida beminnat yordamchidir. Homiladorlik davrida sabzavotni pishirilmagan holatda kunlik ravishda iste'mol qilish homila rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kaliy, magniy, fosfor, mis, natriy, rux, marganets, selen moddalariga bo'lgan kunlik ehtiyojni qondiradi (Tibbiyot TV. 05.04.2022. 17:59).*

Ayyor dard – yog'li gepatoz.

*So'nggi paytlarda yog'li gepatoz tashxisi qulog'imizga tez-tez chalinmoqda. Bu dard xalq orasida «jigarni yog' bosishi» deb yuritiladi. «Yog'li jigar» kasalligi aniq yog' chegaralariga ega emas. Xastalik ko'p hollarda 40-60 yoshdan oshgan ayollarda uchraydi. «Qo'shnilar» ham aziyat chekadi. Ushbu ayyor dard sezdirmay organizmga «hukmronlik» qilishi mumkin [2].*

Bahor mevasi – tut.

*Bahor mevasi tutning shifobaxsh xususiyati haqida bilgan va bilmaganlaringiz... [3].*

Balg'am ko'chiruvchi vosita (perif.) – imbir (zanjabil).

*Imbir (zanjabil) jigar va o't pufagini tozalaydi, qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi, gripp va shamollashni oldini oladi, qon bosimini tushiradi, bosh miyadagi qon aylanishini yaxshilaydi, balg'am ko'chiruvchi vosita hisoblanadi (Tibbiyot TV. 12.04.2022. 17:58).*

Bebaho shifo va quvvat manbayi – asal.

*Ibn Sino ta'biricha, navqironlikni saqlab qolish uchun asal iste'mol qilib turish kerak. Ayniqsa, yoshi ulg'ayib qolganlarga u bebaho shifo va quvvat manbaidir. U shamollash, holsizlik, asab to'qimalari kasalliklarida yaxshi davo bo'ladi [4].*

Bosh darmoni – bodom tolqoni.

*Bosh tez-tez og'rib turganda 10-15 dona shirin bodomni chaqib, 1-2 bo'lak mag'zini shakar bilan birga tolqon qilib, 1-2 choyqoshiq iste'mol qilinsa, bosh darmoni hisoblangan bodom tolqoni muammoni tezda bartaraf etadi ("Xalq tabobati" ko'rsatuvidan).*

Buyrak himoyachisi – olma choyi.

*Siydik-tosh kasalligi va uning oldini olish uchun olma po'stidan tayyorlangan choyni ichish foydali bo'lib, buyrak himoyachisi hisoblangan bu damlama buyrak faoliyatini yaxshilaydi, siydik tizimi kasalliklarini bartaraf qilishga yordam beradi ("Sallomatlik sirlari" ko'rsatuvidan).*

Dardlar davosi – atirgul murabbosi.

*Oq, pushti atirgul barglaridan tayyorlangan murabbo turli xildagi dardlar davosi hisoblanadi va bu tibbiyotda asoslangan [10].*

Dardlarga to'g'anoq – yantoq.

*Xalq tabobatida yantoq ildizlaridan qaynatma ko'rinishida bavoasil, ichburu', jigar kasalliklarida, me'da yarasida davo qilish uchun va o't haydovchi, siydik haydovchi hamda surgi tariqasida foydalaniladi. Yer ustki qismida galen preparatlari ko'rinishida kolitlar, gastridlar, me'da yara kasalligi, ichburug', burun-halqum kasalliklari, angina, yiringli otitlarda, chanqoqni qoldiruvchi, burishtiruvchi vosita sifatida, shuningdek, bachadon bo'yi eroziyalari, qo'l-oyoq kasalliklarida davo qilish uchun ishlatiladi. Dardlarga to'g'anoq damlamasi jarohatlarni bitishiga yordam beradigan vosita tariqasida va vabosilda vanna ko'rinishida tavsiya qilinadi [9].*

Haqiqiy najot – aloy.

*Aloy ko'rish muammolaridan aziyat chekadiganlar uchun haqiqiy najot. Keling, aloy sharbati bilan ajoyib dori retseptini sizlar bilan baham ko'raman* (Tibbiyot TV. 14.04.2022. 17:29).

Haqiqiy uy shifokori – yorongul.

*Yorongul (geran) – haqiqiy uy shifokori. Ayniqsa, onkologik kasalligi mavjud bemorlar uchun foydasi ko'p. Uni bejiz Atirshoh, deb atashmaydi* [1].

Haqiqiy vitamin bombasi – aloy.

*Ushbu vosita (aloy) ko'zlar uchun haqiqiy vitamin bombasi! U katarakt, ko'z og'rig'i va ko'z qovoqlarining yallig'lanishini davolashda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin* (Tibbiyot TV. 14.04.2022. 17:29).

Hayot ildizi – jenshen.

*Qadimgi xitoylik shifokorlar chuchukmiyani go'zallik va yoshlikni saqlovchi «Hayot ildizi» – jenshendani keyingi ikkinchi dori deb hisoblashadi* [8].

Anglashiladiki, perifrazalangan tabiat ne'matlarining barchasi o'z xususiyati, foydali jihatlaridan kelib chiqqan holda qayta nomlanish asosida perifrazalangan. Undagi bo'yoqdorlik, kishi ruhiyatiga ta'siri, til va jamiyat, til va madaniyat aloqadorligi to'la seziladi. Til egasi perifrazani yaratayotganida sifat va xususiyatlar olamida, mantiqiy guruh va ularning mohiyati, substansiyalar dunyosida turgandek bo'ladi.

Perifraza lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilinarkan, haqiqatdan ham tibbiy lingvistikada, xalq tabobatida uchrovdiki birliklar perifrazalanishini ko'rish mumkin. Aslida bu birliklar xalq tabobati bilan bog'liq bo'lib, xalq tilidan kirib kelgan. Chunki shifobaxsh o'simliklarning xususiyatidan kelib chiqib perifrazalash jarayoni kuzatiladi. Bu orqali perifrazalar mahsuldor birlik ekanligi, milliy lingvomadaniyatda o'z o'rniga ega ekanligi ayonlashadi.

Perifrastik birliklar barcha sohalarda qo'llanilishi orqali, nutqni ta'sirli yo'naltira olishi bilan ham lingvomadaniy birlik ekanligini anglash mumkin. Buni istalgan yo'nalish va istalgan sohalarda, nutq va lisondan o'rin olgan, qo'llangan perifrastik misollarni keltirish orqali dalillaymiz. Jumladan:

To'rt fasl sultoni – bahor

*Ularning yurtini allaqachon tark etgan to'rt faslning sultoni bahor bu o'lkaga ko'chib kelib, astoydil joylashib olganday edi* [15, 539].

Oshnachilik zanjiri – do'stlik

*U qamoqda orttirgan ustozining Fima bilan aloqasi bor-yo'qligini bilmasdi. "Bularni oshnachilik zanjiri bog'lab turmasa ham, bir-birlarini tanishlari aniq", degan fikrda gap boshlagan edi, taxmini to'g'ri chiqdi* [15, 543].

Odamiylik fazilatining gulto'ji – mehr-oqibat

*Gap inimizning tabibdan shifo topishida emas, Abdurahmondan shifo topganlarning hisobi yo'q, gap odamiylik fazilatining gulto'ji bo'lgan – mehr-oqibatda!* [15, 586]

Umrdo'shlik binosi – oila

*Chunki, o'zining ilk uchrashgan kunlaridagina emas, doimo aldanganini, ularning umrdo'shlik binosi qum ustiga qurilganini, endi uning butunlay nurab bo'lganini tushundi* [16, 139].

O'tgan umrning muhri – ajinlar

*Chiroyli ko'zlar atrofini ajin qoplaganini endi ko'rdi. "Ajinlar o'tgan umrning muhri" deyishadi. Balki muhri emas, tarixidir? – deb o'yladi Zohid* [14, 275].

Allohning uyi – masjid

*Sizning qarichingiz bilan o'lchansa shundaydir. Ammo Allahning uyi halol peshona teri bilan topilgan pulga qurilmog'i lozim* [14, 99]. Yoki:

Fayz-baraka timsoli – dasturxon

*Xalqimiz orasida fayz-baraka timsoli bo'lgan dasturxon xontaxta ustiga yopiladigan bezakli yoki bezaksiz shaklda bo'ladigan mato hisoblanadi* (So'zlashuvdan).

Mexrob ramzi – mexrob

*Mexrob taxmon, tokcha ma'nolarini ifodalaydi. Mexrob mexrob ramzi bo'lib, joynamoz va gilamlardagi arkasimon mavzu, masjiddagi mehrob ramzidir* (So'zlashuvdan).

Mohir tikuvchi – chevar

*Mohir tikuvchi jumlasini chevar, o'z ishining ustasi bo'lgan to'quvchi va tikuvchiga nisbatan ishlatiladi* (So'zlashuvdan).

Chor shoxu yak-mox – to'rt shox va bitta oy

*Chor shoxu yak-mox – to'rt shox va bitta oy kashtaga oid atama bo'lib, o'rtasida yulduzsimon medalon va chetlarida o'rtaga qarab o'sgan to'rt guldasta tasviri tushirilgan kompozitsiya nomidir* (So'zlashuvdan).

Yuqorida keltirilgan perifrazalarda milliylik, madaniylik xususiyatlari umumlashgan. Perifrazalangan birliklar matniiy tahlillar va izohlar orqali keltirilarkan, u o'zbek madaniyati va o'zbek jamiyati a'zolari uchun

xos ekanligini kuzatish mumkin. Nutqni ta'sirli qila olgan, diqqatni torta bila olishi bilan lingvomadaniylik jihatini yanada boyitgan. Perifraza predmet va birliklarning mazmun-mohiyatini ma'no timsolini aniqlaydi. Perifrastik birliklar o'zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ayniqsa, hunarmandlar nutqi bilan bog'liq perifrazalar madaniy, milliy dunyoqarashga asoslangan.

**Xulosa.** Til shunday o'ziga xos tabiatga egaki, uni odamlar ongiga zo'rlab yoki majburlab tiqishtirib bo'lmaydi. Til dunyoni o'ziga xos tarzda ko'rish, bilish, idrok etish va anglash, ayni paytda boshqalarga tayinli ta'sir etishning qudratli quroli hisoblanadi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani jo'nlashtirishdan aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan sun'iy tilga tenglashtirishdan boshqa narsa emasligi ma'lum bo'ladi. Har bir so'z xalq tili, ko'ngliga yaqin bo'lsa, u oson va tez singadi. Tildan unumli foydalanish, so'z qo'llash borasidagi muammolar o'z yechimini topib borib, yuksaklarga, ko'zlangan maqsadlarga erishmoqda. Ayniqsa, milliy madaniyatimizni o'zida jamlagan hunarmandchilik sohasi bor ekanki, unda kasbning o'zida ham, tilida ham milliylik, madaniylik aks etadi. Bu o'rinda madaniy meros, madaniy an'analar, lingvomadaniy paradigma, til tuzumlari, madaniy fond tushunchalari bilan bog'lanadi.

### ADABIYOTLAR:

1. «Darakchi», № 6. 07.02.2019.
2. «Darakchi», № 10. 07.03.2019.
3. «Darakchi», № 17. 25.05.2019.
4. <https://avitsenna.uz/asal-tabiat-durdonasi/>
5. <https://biosfera.uz/qovun-foydasi/>
6. *The Cambridge Handbook Of Sociopragmatics / edited by Michael Haugh, Dániel Z. Kádár, Marina Terkourafi*, New York: Cambridge University Press, 2021. – P. 735.
7. *O'zbekiston an'anaviy san'ati atamalari badiiy ensiklopediya*. – Toshkent. 2023. – B. 268.
8. «Shifo-info», № 12. 23.03.2017.
9. «Shifo-info», № 3. 18.01.2018.
10. «Shifo-info», № 15. 11.04.2019.
11. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 3.
12. Носиров П. Ўзбек нутқ маданияти (Ўқув қўлланма). Тошкент. 2004, – Б. 197-б.
13. Сафаров Ш. Прагматлингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 318.
14. Тоҳир Малик. Шайтанат. – Тошкент: O'qituvchi, 2018. 1-жилд. – 798 б.
15. Тоҳир Малик. Шайтанат. – Тошкент: O'qituvchi, 2018. 2-жилд. – 735 б.
16. Шухрат. Жаннат қидирганлар. – Тошкент: Қалдирғоч, 2018. – 375 б.